NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

«O‘TKAN KUNLAR» ROMANINING RUSCHA TARJIMASIDA LINGVOMADANIY VA USLUBIY ADEKVATLIK

Mamasodiqova Maxzuna Jalol qizi
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanini rus tiliga tarjima qilish jarayonida lingvomadaniy va uslubiy adekvatlikni ta’minlash masalalari tahlil qilinadi. Badiiy tarjimada mazmun va shakl uyg‘unligini saqlash, milliy-madaniy realiyalar, tarixiy-etnografik birliklar, murojaat shakllari, frazeologizmlar hamda muallif uslubiga xos leksik-sintaktik vositalarni tarjima tilida qayta yaratishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Asliyat va ruscha tarjima materiallari asosida funksional ekvivalentlik, kontekstual kompensatsiya, transliteratsiya, izohlash, forenizatsiya va domestikatsiya kabi tarjima strategiyalarining lingvomadaniy hamda pragmatik imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, romandagi sintaktik qurilish, nutqiy ritm, intonatsiya, muallif izohlari va qahramonlar nutqining tarjimada saqlanish darajasi uslubiy adekvatlik nuqtayi nazaridan baholanadi. Tadqiqot natijasida badiiy tarjima adekvatligini belgilashda semantik to‘liqlik, madaniy izchillik, uslubiy moslik, funksional ta’sir, terminologik izchillik va o‘qish ravonligi kabi mezonlarning o‘zaro uyg‘unligi muhim ekanligi asoslanadi. «O‘tkan kunlar» romanining ruscha tarjimasida milliy-madaniy o‘ziga xoslik va muallif individual uslubini saqlash uchun turli tarjima strategiyalaridan vaziyat va birlikning funksiyasiga muvofiq kompleks foydalanish maqbul yondashuv sifatida belgilanadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy tarjima, «O‘tkan kunlar», lingvomadaniy adekvatlik, uslubiy adekvatlik, mazmun va shakl uyg‘unligi, milliy-madaniy realiya, funksional ekvivalentlik, kontekstual kompensatsiya, forenizatsiya, domestikatsiya, muallif uslubi.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРНАЯ И СТИЛИСТИЧЕСКАЯ АДЕКВАТНОСТЬ В РУССКОМ ПЕРЕВОДЕ РОМАНА «МИНУВШИЕ ДНИ»

Аннотация: *В статье анализируются вопросы обеспечения лингвокультурной и стилистической адекватности в процессе перевода романа Абдуллы Кадыри «Минувшие дни» на русский язык. Раскрываются особенности сохранения единства содержания и формы в художественном переводе, а также воссоздания в языке перевода национально-культурных реалий, историко-этнографических единиц, форм обращения, фразеологизмов и лексико-синтаксических средств, характерных для индивидуального стиля автора. На материале оригинала и русского перевода выявляются лингвокультурные и прагматические возможности таких переводческих стратегий, как функциональная эквивалентность, контекстуальная компенсация, транслитерация, экспликация, форенизация и доместикация. Кроме того, с точки зрения стилистической адекватности оценивается степень сохранения в переводе синтаксического строя, речевого ритма, интонации, авторских комментариев и речи персонажей. Результаты исследования показывают, что при определении адекватности художественного перевода важно взаимное соответствие таких критериев, как семантическая полнота, культурная последовательность, стилистическое соответствие, функциональное воздействие, терминологическая последовательность и удобочитаемость. Оптимальным признаётся комплексное применение различных переводческих стратегий в зависимости от ситуации и функции единицы, что позволяет сохранить национально-культурную самобытность романа «Минувшие дни» и индивидуальный стиль автора в русском переводе.*

Ключевые слова: *художественный перевод, «Минувшие дни», лингвокультурная адекватность, стилистическая адекватность, единство содержания и формы, национально-культурная реалия, функциональная эквивалентность, контекстуальная компенсация, форенизация, доместикация, авторский стиль.*

LINGUOCULTURAL AND STYLISTIC ADEQUACY IN THE RUSSIAN TRANSLATION OF THE NOVEL O‘TKAN KUNLAR

Abstract: *This article examines the issues of ensuring linguocultural and stylistic adequacy in the Russian translation of Abdulla Qodiriy’s novel O‘tkan kunlar. Particular attention is paid to preserving the harmony of content and form in literary translation and to reproducing national and cultural realia, historical and ethnographic units, forms of address, phraseological expressions, as well as lexical and syntactic features characteristic of the author’s individual style. Based on a comparative analysis of the original text and its Russian translation, the study explores the linguocultural and pragmatic potential of such translation strategies as functional equivalence, contextual compensation, transliteration, explicitation, foreignization, and domestication. The article also evaluates the extent to which syntactic structures, speech rhythm, intonation, authorial comments, and characters’ speech are preserved in translation from the perspective of stylistic adequacy. The findings demonstrate that literary translation adequacy depends on the interaction of such criteria as semantic completeness, cultural consistency, stylistic correspondence, functional impact, terminological consistency, and readability. It is argued that the integrated and context-sensitive application of different translation strategies represents an effective approach to preserving the national and cultural specificity of O‘tkan kunlar as well as the author’s individual style in its Russian translation.*

Keywords: *literary translation, O‘tkan kunlar, linguocultural adequacy, stylistic adequacy, harmony of content and form, national and cultural realia, functional equivalence, contextual compensation, foreignization, domestication, authorial style.*

«O‘tkan kunlar» romanidagi nikoh marosimlari, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy holatlar va diniy qarashlar rus o‘quvchisi uchun to‘liq tushunarli bo‘lmasligi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, rus tarjimashunosi A.V. Fyodorov ta’kidlaganidek, tarjimon izoh, iqtibos yoki kontekstual kompensatsiya usullaridan foydalanishi orqali madaniy adekvatlikni ta’minlashi mumkin[1].

Badiiy tarjima nazariyasida ***mazmun*** **va** ***shakl uyg‘unligi*** masalasi adekvat tarjimani ta’minlashning asosiy mezonlaridan biri sifatida qaraladi. Asl matn mazmunini mexanik ravishda yetkazish badiiy tarjima uchun yetarli emas, tarjimon asarning estetik qiymatini belgilab beruvchi shakliy omillarni - kompozitsiya, obrazlar tizimi, ritm, intonatsiya va uslubiy xususiyatlarni ham qayta yaratishi lozim. Shu ma’noda, badiiy tarjima har doim mazmun va shaklning uzviy birligiga tayanadi.

Filologiya va estetikada mazmun va shakl o‘zaro ajralmas dialektik birlik sifatida talqin qilinadi. Mazmun - asarda ifodalangan g‘oyalar, voqealar va ma’nolar majmui bo‘lsa, shakl - ushbu mazmunni ifodalash usullari, ya’ni til vositalari, obrazlar, kompozitsion qurilish va uslubiy yechimlarni qamrab oladi. Badiiy asarda mazmun shakl orqali namoyon bo‘ladi, shakl esa mazmun bilan mazmunli bo‘ladi.

Tarjimada ushbu birlikni saqlash ayniqsa murakkab, chunki tarjimon ikki xil til va ikki xil estetik tizim o‘rtasida ish olib boradi. Asl matn mazmunini saqlagan holda shaklni qurbon qilish tarjimani badiiy jihatdan kambag‘allashtiradi, aksincha, shaklga haddan ortiq e’tibor berib, mazmunni buzish esa asarning g‘oyaviy asosiga putur yetkazadi. Shu sababli adekvat tarjima aynan mazmun va shakl uyg‘unligini ta’minlashni taqozo etadi.

Bu borada, rus tarjimashunosligida adekvat tarjima masalasini tizimli ravishda ishlab chiqqan yetakchi olimlardan biri - V. N. Komissarov bolib, uning ta’limotiga ko‘ra, adekvat tarjima faqat semantik moslikka emas, balki badiiy ta’sirning tengligiga ham asoslanishi lozim. Komissarov quyidagi mashhur ta’rifni ilgari suradi: «Adekvat tarjima - bu asl matnga teng badiiy qimmatga ega bo‘lgan yangi asar»[2].

Ushbu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, olim tarjimani ikkinchi darajali matn emas, balki asliyat bilan estetik jihatdan barobar tura oladigan mustaqil badiiy hodisa sifatida baholaydi. Bu esa mazmun va shakl uyg‘unligini saqlash tarjimon oldidagi eng asosiy vazifalardan biri ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Badiiy shakl bir nechta o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat bo‘lib, ularni tarjimada qayta yaratish turli darajadagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi:

kompozitsiya – asar voqealarining tartibi, boblar tuzilishi va dramatik rivojlanishi tarjimada, odatda, saqlanadi. Biroq ayrim hollarda til xususiyatlari sababli kompozitsion urg‘ular o‘zgarishi mumkin;

o**brazlar tizimi** – qahramonlar nutqi, ichki monologlar, ramzlar va metaforalar orqali shakllanadi. Bu elementlar mazmun bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning yo‘qolishi asarning badiiy qiymatini pasaytiradi;

r**itm va intonatsiya** – ayniqsa nasriy asarlarda ham muhim ahamiyatga ega. Jumla uzunligi, takrorlar, sintaktik parallelizm kabi vositalar tarjimada qayta qurilishni talab qiladi;

u**slub** – muallifning individual yozuv manerasi bo‘lib, uni saqlash tarjimonning eng yuqori mahorat darajasini namoyon qiladi.

Komissarov ta’limotiga ko‘ra, aynan ushbu shakliy elementlarni funksional jihatdan qayta yaratish orqali tarjimon adekvat tarjimani ta’minlay oladi.[3]

Mazmun va shakl uyg‘unligi avtomatik ravishda vujudga kelmaydi, u tarjimonning ustalik bilan bilan qo‘llagan strategiyasi natijasidir. Tarjimon har bir badiiy birlik bo‘yicha qaysi element ustuvor ekanini aniqlab, zarur hollarda shakliy o‘zgarishlar hisobiga mazmunni saqlaydi yoki aksincha, mazmunni buzmasdan shakliy qayta qurishga murojaat qiladi. Bu jarayon ijodiy qarorlar qabul qilishni talab qiladi va tarjimonning individual uslubi ham aynan shu yerda namoyon bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, mazmun va shakl uyg‘unligi badiiy tarjimada adekvatlikni ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. V.N. Komissarov ta’limotiga tayangan holda aytish mumkinki, adekvat tarjima asl matn mazmunini saqlagan holda, uning badiiy shaklini funksional va estetik jihatdan qayta yaratish orqali amalga oshiriladi. Shu jihatdan, badiiy tarjima tarjimondan nafaqat lingvistik bilim, balki yuqori darajadagi estetik tafakkur va ijodiy mas’uliyatni ham talab qiladi.

O‘zbek tilida yaratilgan ko‘plab asarlar asosan lingvistik qatlami: leksika, frazeologiya, sintaksis, uslub kabilar orqali o‘ziga xoslikni namoyon etadi. Jumladan A. Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanida leksik qatlam va arxaizmlar ko‘plab uchraydi va bu holat tarjimada alohida yondashuvni talab etadi. Qodiriy nutqida arabcha-forscha qatlam («muhabbat», «taqdir», «muruvvat», «adab», «mulozamat»), eski turkiy shakllar va xalq tiliga xos qoliplar uyg‘unlashadi. Bunday birliklarni tarjimada funksional ekvivalent yo‘li bilan yoki transliteratsiya + izoh orqali saqlash maqsadga muvofiq. Asar qahramonlari «Otabek» va «Kumush» kabi antroponimlarning -bek, -ush kabi qo‘shimchalar ijtimoiy-estetik ma’noni

1 Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. - М.: Высшая школа, 1983, - с. 129.

2 Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). - М.: Высшая школа, 1990, - с. 79.

3 Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. - М.: ЭТС, 2002, - с. 108.

kuchaytiradi. Asarda ko‘po‘rinlarda Otabekni «-bek» deb ham atalgan. Sharqda ushbu atama martaba, izzat kabi ma’nolarni ifodalaydi. Tarjimon transkripsiyani saqlash (*Otabek, Kumush*) strategiyasidan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bulardan tashqari, muallif voqea-xodisalarni obrazli qilib ifodalashda jonli iboralarni ko‘p qo‘llaydi. Bular: «*ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushdi*», «*yuz-ko‘z qildi*», «*dilida tugun bo‘ldi*», «*ko‘ngli ozdi*», «*ko‘ngli yorishdi*» va shu kabilardir. Bunday holatlarda frazeologizmning pragmatik kuchini saqlash uchun kontekstga bog‘lab, o‘quvchi uchun tabiiy ohang tanlash muhim boladi. Bizningcha adabiy ko‘chirma ko‘pincha «sun’iy»lik kasb etadi.

O‘zbek romanlari tarjimasida adekvatlik faqat leksik-semantik moslik bilan cheklanmaydi, u matnning sintaktik qurilishi, nutqiy ritmi va muallif uslubini saqlashni ham o‘z ichiga oladi. O‘zbek badiiy nasriga xos bo‘lgan sintaktik xususiyatlar - cho‘zilgan periodik gaplar, oraliq izohlar, pauzali ichki monologlar rus tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirilganda ko‘pincha stilistik nomutanosiblik keltirib chiqaradi.

Bu borada tarjimashunos olim E. Nida quyidagicha fikrlarni bildiradi: «Tarjimon formal ekvivalentlikdan ko‘ra funktsional-sintaktik adekvatlikka tayanishi zarur, ya’ni manba tilidagi vositaning estetik va pragmatik funksiyasi tarjima tilida boshqa vosita orqali qayta yaratiladi»[4].

O‘zbek romanlarida muallif nutqi va qahramon ichki kechinmalari ko‘pincha qavs ichida izohlar, konstruksiyalar orqali beriladi. Masalan, «O‘tkan kunlar» asarida muallif izohi ko‘pincha asosiy sintaktik oqimni uzib, baholovchi yoki izohlovchi segment sifatida kiradi. Rus tiliga tarjimada bunday konstruksiyalarni aynan qavs bilan saqlash har doim ham samara bo‘lavermaydi. Bunday holatlarda, ko‘pincha, tire bilan ajratilgan kiritma gaplar yoki intonatsion pauzali alohida segmentlar maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, asliyat matnida berilgan «*U indamadi (bu sukutda ming xil ma’no bor edi), faqat boshini quyi soldi*[5]» gapida qavs ichida berilgan izoh muallif o‘z uslubiga ko‘ra qahramonning ichki kechinmalarini ifodalaydi. Ushbu o‘ziga xos bo‘lgan ifoda uslubi rus tiliga – «*Он молчал - и в этом молчании было слишком много смысла, - лишь опустил голову*»[6] tarzida o‘girilgan. Bu yerda qavs intonatsion ajratish bilan almashtirilib, muallif uslubi saqlanib qolgan.

O‘zbek nasrida keng tarqalgan periodik gaplar ya’ni, asosiy fikr oxirida keladigan, oldindan fon yaratuvchi konstruktsiyalar ko‘p uchraydi. Bunday konstruksiyalarni rus tiliga tarjima qilishda aynan o‘ziday berilsa, rus kitobxoni uchun notabiiylik, sun’iylikni taqdim etilgan bo‘ladi. Shu sababli tarjimada ularni ritmik uzun - qisqa segmentlar orqali qayta tuzish muhim. Tarjimashunos olim J.P. Vinay ta’biriga ko‘ra: «Bunday yondashuv nutq oqimini tabiiylashtiradi va muallif ovozini yo‘qotmasdan ruscha sintaktik me’yorlarga moslashtiradi»[7].

Yuqoridagi holatlardan tashqari iztirob, ichki parokandalik, ruhiy zo‘riqish holatlari o‘zbek romanlarida ko‘pincha qisqa gaplar, ellipslar, tirelar orqali ifodalanadi. Bular nutqiy pauzani kuchaytirib, o‘quvchini qahramon ongiga yaqinlashtiradi. Masalan, «*U o‘yladi… yana o‘sha savol. Javob yo‘q. Yurak siqiladi*»[8]. Bu yerda uch nuqta va qisqa gaplar orqali psixologik ritm saqlab qolingan. Ushbu o‘ziga xoslik ham rus tiliga tarjima qilishda tarjimon adekvatlikni saqlashga urinadi va quyidagi tarzda tarjima qiladi: «*Он думал… снова тот же вопрос. Ответа нет. Сердце сжимается*[9]». Bu yerda V. N. Komissarovning nazariyasiga muvofiq tarjimon gaplarni sun’iy ravishda birlashtirmaydi, aksincha, emotsional fragmentatsiyani asraydi[10].

Yuqorida keltirilgan nazariy fikrlarga ko‘ra o‘zbek romanlarini rus tiliga tarjima qilishda muallif uslubini saqlash quyidagi strategiyalar orqali amalga oshiriladi:

Sintaktik funksiyani aniqlash (gap shakli emas, vazifasi ustuvor).

Ritmik ekvivalentlik (uzun - qisqa segmentlar mutanosibligi).

Pauza vositalarini moslashtirish (qavs - tire, bog‘lovchi - pauza).

Psixologik holatga mos segmentatsiya (iztirobda qisqartirish, tasvirda cho‘zish).

Bu yondashuvlar tarjimani nafaqat tushunarli, balki madaniy jihatdan ishonchli qiladi

Ko‘p o‘rinlarda tillarora farqlar tarjima jarayonida adekvatlikni ta’minlashda murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Bir tildagi murojaat shakllarini ikkinchi tilde ifodalashda aynan pragmatic ma’noni saqlash va har tomonlama adekvatlikka erishish uchun tarjimon o‘z strategiyasini to‘g‘ tanlashi kerak bo‘ladi. Bu borada E. A. Nida nazariyasida quyidagicha fikrlar bildirilgan: «… adekvatlik formal ekvivalentlikdan ko‘ra pragmatik-funktsional ekvivalentlik orqali ta’minlanadi»[11].

---

4 Nida E. A. Toward a Science of Translating. Leiden: Brill, 2000, - p. 217.

5 Qodiriy A., O’tkan kunlar /roman/ ”Adabiy barhayot asarlar” turkumi, Toshkent, : “Navro’z”, 2019, - б. 137.

6 Кадыри А. Минувшие дни: роман/Перевод с узбекского М. Сафаров. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2025, - с. 166.

7 Vinay J. P., Darbelnet, J. Stylistique comparée du français et de l’anglais. Paris, 1958.

8 Qodiriy A., O’tkan kunlar /roman/ ”Adabiy barhayot asarlar” turkumi, Toshkent, : “Navro’z”, 2019, - b. 139t.

9 Кадыри А. Минувшие дни: роман/Перевод с узбекского М. Сафаров. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2025, - с. 168.

10 Komissarov V. N. Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty). Moskva, 1990, - c. 134.

11 Nida E. A. Toward a Science of Translating. Leiden: Brill, 2000, - p. 79.

Bunday holatlar o‘zbek adabiyotida keng ommalashgan holatlardan xisoblanadi. Murojaat shakllari grammatik kategoriyadan tashqarida bo‘lsa-da, ular pragmatik va madaniy ma’nonio‘zida mujassam etadi: hurmat, yaqinlik, yosh farqi va gender kabilar shu birliklar orqali ifodalanadi.

Tarjimada bunday birliklarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri leksik moslik bilan berish ko‘pincha samarasiz kechadi. Shuning uchun adekvatlik formal ekvivalentlikdan ko‘ra pragmatik-funktsional ekvivalentlik orqali ta’minlanadi. Bu borada tarjima nnzariyotchilari P. Brown, hamda S. Levinsonlarga ko‘ra: «Hurmatni ifodalovchi murojaat **komponentlari** tarjima tilidagi ekvivalenti bilan emas, hurmatni bildiruvchi so‘z, **intonatsiya** yoki **nutq registri** orqali kompensatsiya qilinadi»[12]. Masalan, «aka/opa» birliklari biologik qarindoshlikdan tashqarida ham qo‘llanib, hurmat + norasmiy yaqinlikni ifodalaydi. Bu murojaatlar qahramonlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofa qisqarganini bildiradi: «*Aka, bir daqiqa kutib turing» ruschada* – «*Послушайте, пожалуйста…*». Bu yerda «aka»ning hurmat komponenti ruscha «пожалуйста», intonatsiya yoki nutq registri orqali ifodalanmoqda.

V. N. Komissarov fikriga ko‘ra turli til tizimlariga mansub bo‘lgan tillararo tarjima ishlarida ayrim murojaat shakllari mavjudki, murojaatning o‘zi tushirib qoldiriladi, ammo muloyimlik ohangi, strategiyasi, imperativsiz buyruq, rasmiy fe’l shakli saqlab qolinadi[13]. Masalan, o‘zbek tilida «Xonim», «janob» kabi murojaat shakllari nafaqat rasmiylik, balki masofa va ehtiromni ham bildiradi. Rus tilida bu birlik ko‘pincha «госпожа» bilan beriladi, biroq rus badiiy matnida u sovuq yoki kinoyaviy ma’noni ham ifodalaydi. O‘zbekcha: «*Xonim, marhamat qilib o‘tiring», ruschada esa:* «*Прошу вас, присаживайтесь*» tarzida o‘girilsa adekvatlik ta’minlangan bo‘ladi. Bu yerda murojaatning o‘zi tushirib qoldiriladi, ammo muloyimlik strategiyasi saqlanadi. Yoki, o‘zbek tilidagi - «Oyim», «otajon», «bobo» kabi affektiv-ehtiromiy birliklar rus tiliga tarjima qilinganda tarjimon leksik kengaytirish yoki intonatsion kompensatsiyadan foydalanadi. Masalan, «Ota-jon»dagi *-jon* suffiksi rus tilida ko‘pincha leksik qo‘shimcha bilan beriladi: «*Дорогой отец*», «*папа, родной*» va hokazo.

O‘zbek romanlarida murojaat shakllari ko‘pincha dramatik burilish nuqtalarini belgilaydi, qahramon «aka»dan ismga o‘tadi yoki aksincha. Bu almashuv munosabat dinamikasini ko‘rsatadi. Masalan, «O‘tkan kunlar» asarida ayrim dialoglarda murojaatning o‘zgarishi qahramonlar o‘rtasidagi ishonch yoki ziddiyat kuchayganini bildiradi. Ruscha tarjimada buni «ты/вы» opozitsiyasi, intonatsiya, yoki baholovchi epitetlar orqali qayta yaratish mumkin[4].

Bizningcha o‘zbek romanlaridagi murojaat shakllari - bu oddiy nominativ birliklar emas, balki madaniy-semiotik signallardir. Ularni rus tiliga tarjima qilishda adekvatlik so‘zma-so‘z moslik bilan emas, balki ijtimoiy ma’no va uslubiy registrni qayta yaratish orqali ta’minlanadi. Tarjimon murojaatning funksiyasini markazga qo‘ygan holda, rus tilining pragmatik resurslarini ishga solishi kerak bo‘ladi. Shu bilan birga, Otabek – Kumush - Zaynab murosasiz holatdagi murojaat shakllari («jon», «begim»), sukut va kinoya, g‘iybat, «nomus» singari normalarni tarjimada shunchaki leksik o‘girish emas, balki pragmatik vazifasi bilan uzatish zarur. Masalan, *«jon»* - nafaqat «dear», balki mehr va yaqinlikning belgisi sifatida ba’zan «dear» yetarli, ba’zan «my heart» singari obrazli qilib o‘giriladi.

Buxoro amirligi davri, savdo karvonlari, shariat-huquqiy atamalar (qozikalon, muhtasib…) - bular izohlar, kichik lug‘atlar orqali yengil yoritilsa, matn o‘qilishi buzilmaydi. Tarjimashunos olim J. House o‘z qarashlarida aynan shunday yo‘lni tavsiya etadi va tarjima matnida asliyat madaniyati «ko‘rinib turishi» kerak, degan g‘oyani ilgari suradi[14].

O‘zbek nasriy asarlarida ko‘p o‘rinlarda ritm va kompozitsiya o‘qish tebranishini belgilaydi, ya’ni sahna-sahna o‘tishlar, ichki monologlar, tabiat fonlari, ijtimoiy dialoglar va boshqalar. Aynan bu ifoda uslublarini boshqa tilga tarjima qilishda tarjimondan quyidagilar talab etiladi:

Periodik gaplar (uzun gapni kichik bo‘laklarga ritmik bo‘lish);

Pauza belgisi (tire, ellipsis) yordamida ichki ohangni saqlash;

Muallif izohi (kinoya, ijtimoiy baho) uchun intonatsion markaz yaratish talab qilinadi.

Muallif uslubini saqlamaslik madaniy adekvatlikdan yiroqlashsishga olib keladi. Shu o‘rinda yuqorida tarjima nazariyotchilari tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan tarjima strategiyalardan tarjimon oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish uchun qanday foydalansa maqsadga muvofiq bo‘lishini jadval asosida ko‘rsatib o‘tishni lozim topdik:

№	**Vazifa**	**Afzal strategiya**	**Izoh**
1	Milliy kodni ko‘rsatish	Forenizatsiya + qisqa izoh	Realiyani saqlash, 10–15 so‘zlik izoh yetarli
2	O‘qish ravonligi	Funktsional ekvivalent	Frazeologizm, metafora tabiiylashadi
3	Uslubiy registr	Transkripsiya + izoh	Murojaat, suffikslar, ijtimoiy masofa
4	Keng izoh talab qiluvchi kontekst	Paratext (yorliq/oxirgi izoh)	Adabiy oqimni buzmaslik uchun izohni chetga

12 Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press, 1987, - p. 149.

13 Komissarov V. N. Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty). Moskva, 1990, - c. 215.

14 House J. Translation Quality Assessment. Routledge. 2015, - p. 153.

			ko‘chirish
5	Tarixiy termin	Kombinatsiya	Birinchi uchrashuvda izoh, keyin esa qisqartirish

Shu o‘rinda tadqiqotimizda tarjimada adekvatlikni ta’minlovchi quyidagi mezonlarni taklif qilamiz:

Semantik to‘liqlik: mazmun yo‘qotilmaganmi, implikatsiya saqlanishi;

Madaniy izchillik: realiya, etik me’yorlar, tarixiy ishoralarni aks etishi;

Uslubiy moslik: muallif ovozi, ritm, obrazlilik qayta yaratilganligi;

Funktsional ta’sir: tarjima matni o‘quvchisi xisobga olish;

Terminologik izchillik: bir xil birlik bir xil usulda muntazam uzatilish;

O‘qish ravonligi: ortiqcha izohlarga yolol qo‘ymaslk, ravonlikni saqlash.

Yuqorida keltirib o‘tgan takliflarimizdan kelib chiqib Venuti nazariyasiga ko‘ra, har bir tarjima matnida biz o‘quvchini asliyat matni madaniyati sari chorlaymizmi (forenizatsiya) yoki matnni o‘quvchiga yaqinlashtiramizmi (domestikatsiya)? Bu savolga javob topishda asosan klassik roman uchun ko‘pincha «oshkora» yondashuv - milliylikni ko‘rsatish kerak bo‘ladi, lekin o‘qish ravonligi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Shuning uchun kombinatsiyalangan model - nomlarni saqlash + qisqa izoh, frazeologizmda funksional ekvivalent, marosimlarni ifodalashda izohli transliteratsiya hamda muallif uslubini saqlash eng maqbul yo‘l deb xisoblaymiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, lingvistik va madaniy adekvatlik «mazmun - shakl» uyg‘unligi sifatida qaralganda, «O‘tkan kunlar» asari kabi klassik matnlarni tarjima qilishda quyidagi tamoyillar afzal deb xisoblaymiz:

Semantik va uslubiy qatlamni birga ifodalash: ibora - ritm - intonatsiya uyg‘unligi;

Milliy madaniyatni ko‘rsatish: realiyalarni asosan saqlash, izoh bilan ta’minlash;

Funktsional ekvivalentdan oqilona foydalanish: frazeologiya va hissiy intensivlikda;

Shu tarzda adekvat tarjima - bir yoqlama emas, muvozanatli kompozitsiya: mazmunni saqlagan, shakl nafisligini yo‘qotmagan, madaniy betakrorlikni o‘quvchi ongida jonlantira olgan tarjima yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. - М.: Высшая школа, 1983, - с. 129.
2. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). - М.: Высшая школа, 1990, - с. 79.
3. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. - М.: ЭТС, 2002, - с. 108.
4. Nida E. A. Toward a Science of Translating. Leiden: Brill, 2000, - p. 217.
5. Qodiriy A., O‘tkan kunlar /roman/»Adabiy barhayot asarlar» turkumi, Toshkent,: «Navro‘z», 2019, - б. 137.
6. Кадыри А. Минувшие дни: роман/Перевод с узбекского М. Сафаров. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2025, - с. 166.
7. Vinay J. P., Darbelnet, J. Stylistique comparée du français et de l’anglais. Paris, 1958.
8. Qodiriy A., O‘tkan kunlar /roman/»Adabiy barhayot asarlar» turkumi, Toshkent,: «Navro‘z», 2019, - b. 139t.
9. Кадыри А. Минувшие дни: роман/Перевод с узбекского М. Сафаров. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2025, - с. 168.
10. Komissarov V. N. Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty). Moskva, 1990, - c. 134.
11. Nida E. A. Toward a Science of Translating. Leiden: Brill, 2000, - p. 79.
12. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press, 1987, - p. 149.
13. Komissarov V. N. Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty). Moskva, 1990, - c. 215
14. House J. Translation Quality Assessment. Routledge. 2015, - p. 153.